

TASDIQLAYMAN

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki raisi o'rinbosari

A.Kamalov

" 8 " sentabr 2025-yil



O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha Maslahat kengashining 2025-2026 yillarga mo'ljallangan ISH REJASI

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Mas'ul ijrochilar	Ijro muddati
1.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 18-martdagi SQ-102-V-sonli Qarorida belgilab berilgan ustivor vazifalardan kelib chiqib, 2030-yilga qadar bank tizimida gender tenglikka erishish strategiyasini 2025-2027-yillarda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari dasturi jrosini ta'minlash yuzasidan ishlarni tashkil etish.	Maslahat kengashining a'zolari	doimiy
2.	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tizimida gender hisobini yuritish, monitoring qilish, baholash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish.	Maslahat kengashining a'zolari	doimiy
3.	O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvining 2025-yil 24-apreldagi 10/9-sonli Qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tizimida Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalariga oid Siyosatining maqsadi va vazifalarini Markaziy banki xodimlariga tushuntirib borish.	Maslahat kengashining a'zolari	doimiy
4.	Gender tenglik inklyuziyasi va imkoniyatlari haqida xodimlarni xabardorligini oshirish maqsadida o'quv materiallari (tarqatma material, risola, buklet) ko'rgazmali targ'ibot vositalarini tayyorlash.	Maslahat kengashining a'zolari	doimiy
5.	O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash yuzasidan gender tenglikni ta'minlash masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganligini xodimlariga yetkazish.	Maslahat kengashining a'zolari	doimiy
6.	O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida rahbarlik lavozimlariga gender tenglikni inobatga olgan holda nomzodlar zaxirasini shakllantirish va xotin-qizlar ulushini ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Maslahat kengashining a'zolari	doimiy
7.	Tijorat banklarida gender tenglik bo'yicha monitoring tizimi, gender statistikasini joriy qilish va hisobotlarini tahlil qilish.	Maslahat kengashining a'zolari Jumayeva.S.X.	doimiy

8.	Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash Siyosatini va amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bo'yicha boshqaruv a'zolari uchun yillik hisobotni tayyorlash.	Maslahat kengashining a'zolari	yillar davomida
9.	Tashqi auditoriyaga ommaviy axborot vositalaridan hamda Markaziy bankning rasmiy sayti va kanallardan, press-revizlar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish orqali gender siyosati, qoidalar va tashkiliy jarayonlar haqida ma'lumotni keng jamoatchilikka yetkazish.	Mahmudova X.R. Jumayeva.S.X.	yillar davomida
10.	Xotin-qizlar va erkaklar uchun moliyaviy inklyuziyani oshirishda milliy va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.	Jumayeva.S.X.	yillar davomida
11.	Gender tenglikni rivojlantirish va muammolarini aniqlash bo'yicha o'zini o'zi baholash natijalari bo'yicha banklar bilan mulqot qilish.	Maslahat kengashining a'zolari	yillar davomida
12.	Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash borasidagi davlat dasturlari, milliy harakatlar rejalari va strategiyalarni amalga oshirish yuzasidan o'z takliflarni berish.	Maslahat kengashining a'zolari	yillar davomida
13.	Yosh olim va olimlar safini kengaytirish maqsadida, Markaziy bank tizimi bo'yicha ilmiy unvonga ega xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Markaziy bankning rasmiy saytida joylashtirish.	Mahmudova X.R. Jumayeva.S.X.	yillar davomida
14.	Ishga kirish maqsadida murojaat qilgan nomzodlar bilan o'tkaziladigan suhbat yoki boshqa jarayonlarda, ish beruvchi tomonidan vazifa va lavozimlarga tayinlashda hamda kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlash.	Maslahat kengashining a'zolari Gaziyeva M.K.	yillar davomida
15.	Xodimlarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir hamda zo'ravonlik, kamsitish va tazyiqqa qarshi shikoyatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish mexanizmini ishlab chiqish va masalaga tezkor yondashish, kelib tushgan murojaatlarni va anonim so'rovlarni qisqa muddatda ko'rib chiqish choralari ko'rish.	Maslahat kengashining a'zolari Gaziyeva M.K.	yillar davomida
16.	O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-sonli Qonuni, jrosini ta'minlash yuzasidan, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, ushbu Qonunda belgilangan ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanilishiga sabab bo'ladigan hujjatni xodimlariga yetkazish.	Maslahat kengashining a'zolari	yillar davomida
17.	Bir xil lavozimlarda ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklarga oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar teng to'lanishini monitoring qilish va gender auditni o'tkazish.	Botirov B.Sh.	yillar davomida
18.	O'zbekiston Respublikasi Bank tizimi uchun 2025-2030-yillarga mo'ljallangan "Gender Balance Index (GBI)" reytingida inobatga olinuvchi gender ko'rsatkichlarini yaxshilash choralari ko'rish uchun harakatlar dasturini ishlab chiqish.	Maslahat kengashining a'zolari	yillar davomida
19.	Gender tenglikni rivojlantirish bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qilish (Hamkorlik shartnomalari va memorandumlar tuzish).	Jumayeva.S.X. Gaziyeva M.K.	yillar davomida